



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 / ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА



№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalash borasida DAVLAT TIBBIY SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoiberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKIOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashtshuvaev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKIOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48
15.	KORXONALARGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJUY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH SHAKLLARI <i>Ibragimov G'anjon G'ayratovich</i>	51
16.	YASHIL SUG'URTANI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR <i>Yo'ldosheva Aziza Muzaffar qizi</i>	54
17.	O'ZBEKISTONDA MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISH SHAROITIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI JADAL RIVOJLANTIRISHDA ANDERRAYTING OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Alimov Ilhomjon Ikromovich</i>	57
18.	KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING DAROMADINI OSHIRISH STRATEGIYALARI <i>Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich</i>	60
19.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARINI STATISTIK TAHLILI <i>Razikova Gulmira Sharifovna</i>	63
20.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKIOTLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	67
21.	ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLAR <i>Murodov Jaylonbek Jurabek o'g'li</i>	68

“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilar uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash kafedrasи mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutualova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasи dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).



ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLAR

Murodov Javlonbek Jurabek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
javlonbekmurodov571998@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/282

Annotasiya: ushu maqolada O'zbekiston Respublikasida Islom moliyasining joriy etilishi va uning istiqbollari, shuningdek, mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Maqolada xalqaro tajriba tahlil qilinib, O'zbekiston uchun istiqbolli yo'nalishlar va muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: islom moliysi, Shariatga muvofiq moliyaviy mahsulotlar, iqtisodiy islohotlar, huquqiy-normativ baza, moliyaviy savodxonlik, sukuk, takaful, murobaha, ijara, mikro-moliya, investitsion muhit, shariat ekspertizasi.

Abstract: this article analyzes the introduction of Islamic finance in the Republic of Uzbekistan and its prospects, as well as existing problems. The article analyzes international experience and develops promising directions for Uzbekistan and recommendations for eliminating problems.

Keywords: islamic finance, Sharia-compliant financial products, economic reforms, legal and regulatory framework, financial literacy, sukuk, takaful, murabaha, lease, microfinance, investment environment, Sharia expertise.

Абстрактный: в данной статье анализируется внедрение исламского финансирования в Республике Узбекистан и его перспективы, а также существующие проблемы. В статье анализируется международный опыт и разрабатываются перспективные направления для Узбекистана и рекомендации по устранению проблем.

Ключевые слова: исламские финансы, финансовые продукты, соответствующие шариату, экономические реформы, нормативно-правовая база, финансовая грамотность, сукук, тakaфул, мурабаха, лизинг, микрофинансирование, инвестиционная среда, экспертиза шариата.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning jadallashuvni, moliya bozorida zamonaviy tizimlarni joriy etish va moliyaviy xizmatlar ko'lalmini kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida moliya sektorining barqarorligi va samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliyaviy amaliyotda keng qo'llanilayotgan va shariat normalariga asoslangan Islom moliyasi tizimi O'zbekistonda ham dolzarb mavzulardan biri bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab rivojlanayotgan davlatlari, xususan, Malayziya, Indoneziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiyada Islom moliysi tizimi muvaffaqiyatlidir. Joriy etilgan va iqtisodiy o'sishga muhim hissa qo'shmoqda. Ushbu tajriba O'zbekiston uchun ham o'rganishga arziydi, chunki mamlakat aholisi va tadbirkorlik sub'ektlari orasida shariatga muvofiq moliyaviy mahsulot va xizmatlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Biroq, Islom moliyasining O'zbekistonda keng joriy etilishi yo'lida huquqiy va normativ bazaning yetarli emasligi, moliyaviy savodxonlikning pastligi, kadrlar tayyorlash va zamonaviy texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi kabi omillar tizimming to'liq ishlashtiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, hukumat tomonidan Islom moliyasi sohasini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va xalqaro tajribani o'rganish bo'yicha sa'y-harakatlar boshlanganligini inobatga olish maqsadiga muvofiq.

Mazkur maqolada Islom moliyasining asosiy tamoyillari, O'zbekistonda uni joriy etish istiqbollari va muammolari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida mamlakat uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda islomiy moliyaviy tizimning rivojlanish sur'atlari jahon moliya bozorida sezilarli darajada oshmoqda. IFSB tomonidan tayyorlangan "Islamic Financial Services Industry Stability Report 2023" [1] hisobotidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023-yil holatiga ko'ra global islom moliya bozori hajmi 3,25 trillion AQSH dollariga yetgan. Bu tizimga bo'lgan qiziqish nafaqat musulmon davlatlarda, balki moliyaviy

diversifikatsiyaga intilayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ham ortmoqda.

Islom taraqqiyot bankining 2020-yilgi yillik hisobotida[2] islom moliyasingin rivojlangan mamlakatlarda (Malayziya, BAA, Bahrayn) muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun huquqiy moslashuv, davlat siyosati qo'llab-quvvatlovli va moliyaviy soha ishtirokchilari o'tasidagi uzviy hamkorlik muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Mavzu bo'yicha xalqaro olimlar, xususan A. Saeed[3] o'z tadqiqotida Islom moliyasingin asosiy tamoyillari — riba (foiz)dan voz kechish, ishlab chiqarish bilan bog'liq haqiqiy aktivlarga sarmoya kiritish, hamda shaffoflik va adolat tamoyillariga asoslanishi, uni an'anaviy moliya tizimidan ajratib turadi. Bu xususiyatlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etilgan.

Shuningdek, X.Xasanov[4], T.Boboqulov[5], O.Astanakulov,[6] B.Jo'reaclar[7]ning tadqiqotlarida O'zbekistonda islomiy moliya xizmatlarini joriy etish bilan bog'liq muammolarni va bu moliya soxasini bank va nobank tashkilotlari rivojlanirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada deskriptiv, taqqoslov va problem-solution tahlil metodlari asosida Islom moliyasingin O'zbekiston iqtisodiyoti va moliyasiiga ta'siri o'rganiladi, mavjud muammolarga yechimlar taklif etiladi. Statistik ma'lumotlar tahlili orqali O'zbekiston va boshqa davlatlar tajribasi solishtiriladi. Shuningdek, ilmiy manbalar va amaliy ko'rsatkichlar chiqariladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Islom moliyasi zamonaviy moliyaviy ekotizimda muqobil va innovatsion yechimlar generatori sifatida tobora kengroq e'tirof etilmoqda. Ushbu moliyaviy modelning markazida shariatga asoslangan, lekin zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirilgan tamoyillar yotadi.

Islom moliyasingin asosiy farqi — moliyaviy operatsiyalarda spekulyatsiya va noaniqlik (g'arar) man etilishi, investitsion qarorlar esa ijtimoiy-axloqiy tamoyillar bilan uyg'unlashgan bo'lishidir. Shu sababli, ESG (environmental, social, governance) mezonlariga mos, ijtimoiy

mas'uliyatlari investitsiya loyihalari Islom moliyasi uchun muhim yo'naliш hisoblanadi.

Markaziy bank hamda Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi yillarda aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabi 15-20% ga o'sgan[8]. Shu bilan birga, so'rovnomalar natijasida aholining sezilarli qismi an'anaviy foizli moliyalashtirishdan ko'ra, shariatga mos moliyaviy mahsulotlarni afzal ko'rshini bildirgan. Bu esa, jamiyatda Islom moliyasiga ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Hozirda dunyoda 80 dan ortiq mamlakatda Islom moliyaviy institutlari faoliyat yuritmoqda. Ularning eng yiriklari Malayziya, Saudiya Arabiston, Indoneziya, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Turkiya va Qatar hisoblanadi.

1-jadval.
Islom banklarining aktivlari ko'rsatkichlari (2021-2023, milliard AQSH dollarlari)[9]

T/r	Mamlakatlar	2021	2022	2023
1	Malayziya	250	270	290
2	Saudiya Arabiston	150	165	180
3	Indoneziya	100	110	120
4	BAA	80	87	95
5	Qatar	40	44	48

1-jadvalda berilgan ma'lumotlarga asosan Islom banklari rivojlajangan top 5 mamlakatlarda 2021-2023 yillarda Islom banklari aktivlari yiliga o'rtaча 8% ni tashkil etgan bo'sha, ushu oralida jami 15-20% lik o'sishga erishilgan. Shuningdek, Malayziyada 2023-yil holatiga ko'ra, Islom banklarining jami aktivlari umumiylar sektorining 36% ini tashkil etgan bo'sha, bu ko'rsatkich Saudiya Arabistonida 55% ni tashkil etgan. Xususan, Malayziyada Islomiy obligatsiyalar (sukuk) bozori hajmi 2023-yilda 133 milliard AQSh dollaridan oshib, global sukuk emissiyalarining 60% dan ortig'ini tashkil etdi. Saudiya Arabiston esa Malayziyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi va 2023-yilda 44 milliard dollar hajmida sukuk chiqqarganligini e'tirof etish mumkin.[10]

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadi, Islom moliyasining O'zbekistonda muvaffaqiyatlari joriy etilishi uchun quyidagi sohalarda kompleks yondashuv zarur:



1-rasm. Islom moliyasini O'zbekistonda joriy etishning kompleks yondashuvi

O'zbekiston uchun ushu davlatlar tajribasi, jumladan, normativ-huquqiy baza yaratish, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish va kadrlar tayyorlash bo'yicha bosqichma-bosqich yondashuv, sektorning barqaror va samarali rivojlanishiga asos bo'la oladi. Shuningdek, yuqoridagi sxemada keltirilgan yondashuvlar Islom moliyasini O'zbekistonda joriy etish bilan bog'liq muammolarga yechim beruvchi asosiy takliflardandir. Undan tashqari quyidagi mayjud muammolar sohaning keng joriy etilishidagi asosiy barriyerlardan deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Bular:

- Huquqiy bazaning yetishmasligi. Garchi Islom moliyasiga bog'liq moliyaviy jarayonlar mamlakatimizda 2019-yilda keng ko'lama boshlangan bo'sada, huquqiy va normativ bazaning to'liq joriy etilmaganligi jarayonning jadallahishida eng asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

- Moliyaviy savodxonlik va aholining xabardorlik darajasining pastligi. Aholi va tadbirkorlik subyektlari orasida Islom moliyasining mohiyati va afzalliklari haqida yetarli bilim va tushunchaning yetishmasligi sektorning keng ommalashuviga to'sqinlik qilmoqda. 2023-yilgi "Financial Literacy in Uzbekistan" so'rovnomasi natijalariga ko'ra, respondentlarning atigi 18-20 foizi Islom moliyasi mahsulotlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lgan.[11]

- Kadrlar va ekspertriza yetishmasligi. Islom moliyasi institutlari uchun malakali shariat ekspertrizi, moliyaviy menejerlar va huquqshunoslar tayyorlash borasida tizimli yondashuv yetishmaydi. Bu esa yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, shariatga muvofiqlikni

ekspertizadan o'tkazish va xalqaro standartlarni joriy etishda qiyinchilik tug'diradi.

- Texnologik va infratuzilmaviy cheklar. Islom moliyasi institutlari uchun zamонави bank texnologiyalari, raqamli platformalar va fintech yechimlar yetarlicha joriy etilmagan. Elektron moliyaviy xizmatlarning cheklanganligi, regulator talablarining an'anaviy moliyaviy sohalarga yo'naltirilganligi sektor uchun raqobatbardoshlik va innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini qisqartiradi.

- Xavfsizlik va nazorat. Maxsus nazorat organlari va sertifikatlash tizimi hozircha ishlab chiqilmagan, bu esa moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim muammo bo'lib qolmoqda.

O'rganishlar natijasida tayyorlangan yuqoridagi ma'lumotlar shuni aks ettiradi, garchi ko'rsatilan muammolar tez-tez ta'kidlansada, markaziy muammo huquqiy-normativ bazani shakllantirish va mustahkamlashda qolmoqda. Yuqoridagi muammolar dolzarbli bilan birgalikda ularga yechim topilishi fonida moliya, bank, sug'urta, budget va ta'lim sohalarda istiqbolli rivojlanish hamda yuqori samaradagi investitsion va innovatsion muhitni yaratish imkon paydo bo'lishi aniq.

Mamlakatdagi bozor imkoniyatları shuni ko'rsatadi, aholining 90 foizi musulmonligini[12] hisobga oлган holda mamlakatda Islom moliyasi keng joriy etish uchun katta jamoatchilik bazasi mayjud. Bu esa mamlakat bozorining ehtiyojlariga mos keladigan sukul, takaful, mikro-moliya va shariatga muvofiq investitsiya mahsulotlari ishlab chiqilishi va kengaytirilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Milliy Bankining taqdim etgan statistik ma'lumotlarga ko'ra 2024-yilga kelib, shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj mamlakatda 25% ga oshgan.[13] Bu, nafaqat bozor hajmining kengayishini, balki yangi mahsulotlar va xizmatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishini anglatadi.

2024-yilning 20-avgust kuni Prezidentimizning Qoraqlopg'istonda bo'lib o'tgan tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqoti davomida mamlakatimizda o'tkazilgan so'rovnomada tadbirkorlarning 38 foizi Islom moliyasi asosida resurs olish istagini bildirganiga alohida e'tibor qaratdilar. Undan tashqari joriy yilda mamlakatimizda "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi" Nizom qabul qilinganligiga alohida takidlandi. Tayyorlangan yangi qonun loyihasi qabul qilinsa, Islom moliyasi bilan banklar ham ishlashi mumkin bo'lishini inobatqa olib, bu – yangi moliyaviy xizmatlar taqdim etlishi, ko'p investorlar kirib kelishi va 5 milliard dollarlik qo'shimcha resurs paydo bo'lishiga turkti berishini ta'kidlab o'tdilar.[14]



2-rasm. O'zbekistonda Islom moliyasini joriy etish va uning mamlakat uchun afzalliklari

O'rganishlar natijasida mamlakat aholisining 60-65 fozinining shariatga muvofiq moliya xizmatlari ehtiyojini bortligi, 18-20 foiz aholining e'tiqod yuzaisdan shariatga muvofiq bo'limgan moliyaviy xizmatlardan foydalana olmayotganligi sababli, mutaxassislar aholining qo'lida 4 milliard dollarga yaqin mablag'larning qotib qolganligini takidlashadi. Islom moliyasi va bankining joriy etilishi ortidan shu qotib qolgan pullarning iqtisodiyotda faollashishi, mamlakatda pul aylanmalari hajmi ortishi, inflatsiya darajasining kamayishiga erishish mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar

O'rganishlar natijasiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi besh yilda Islom moliyasini mamlakatda joriy etish bo'yicha bir qancha muhim qadamlar tashlahdi va yaqin yillarda Islom moliyasiga doir keng ko'lamlı loyihalar amalga oshirish harakatida.

Shuningdek, xalqaro tajribalar — Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni va BAA davlatlarining muvaffaqiyatli amaliyotlari, O'zbekiston uchun muhim andoza va yo'nalishlar sifatida ko'rsatildi. Bu

davatlarning moliyaviy infratuzilmasi, huquqiy bazasi va texnologik imkoniyatlari, mamlakatimizda ham shunga o'xshash rivojlanish uchun muhim namunadir.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati

1. Islamic Financial Services Board. Islamic Financial Services Industry Stability Report 2023 <https://www.ifsb.org>
2. Islamic Development Bank. Annual Report 2020 / Islamic Development Bank. – Jidda, 2020. – <https://www.isdb.org/publications>
3. Saeed, A. Islamic Banking and Interest: A Study of the Prohibition of Riba and Its Contemporary Interpretation / A. Saeed. – Leiden : Brill Academic Publishers, 2011. – 240 p.
4. X.Хасанов “Исломий молия асослари” китоб 5-кисм 13-боб Ўзбекистон Республикасида исломий молиялаштириш. Ўзбекистон 2019.
5. Бобоқулов Т “Ўзбекистон Республикаси банк тизимида омонат жалб қилиш билан боғлиқ мавжуд муаммоларни исломий банк маҳсулотларини жорий этиш оркали бартараф этиш”. Логистика ва Иқтисодиёт 2020 №3-С10-17,
6. О.Астанакулов Ислом молия асослари: тараққиёт босқичлари, истиқболлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №5, сентябр-октябр, 2021 й,
7. Б.Жўраев “Ўзбекистонда ислом молиясини жорий этиш зарурияти ва уни ривожлантириш имкониятлари. PhD илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Тошкент 2023 й, 18 б.
8. <https://www.cbu.uzc/statistics/>
9. Islamic Finance Development Report, 2023 ga ko'ra muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
10. Islamic Finance Development Report, 2023
11. <https://finlit.uz> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim veb-sayti
12. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi
13. <https://nbu.uz> O'zbekiston Milliy Banki rasmiy sayti
14. <https://president.uz/uz/lists/view/7481> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti